

ANALYSIS AND COMPARISON OF INNOVATIVE TEACHING METHODS IN TECHNOLOGICAL EDUCATION**Turgunov Rustambek Rahimjon ugli**

Turgunovrustambek2001@gmail.com

+998945620233

Master's student of Andijan State Pedagogical Institute

Scientific supervisor: PhD., associate professor **Orinboev Muhammadzohir**

Annotatsiya: Mazkur maqolada texnologik ta'lim tizimida innovatsion o'qitish metodlarini qo'llashning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning zamonaviy mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida interfaol metodlar, raqamli texnologiyalar, kreativ yondashuvlar va pedagogik innovatsiyalarning ta'lim samaradorligiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, innovatsion metodlarning an'anaviy metodlardan farqli jihatlari, afzalliklari hamda samaradorligi tahlil qilindi. Tajriba-sinov ishlari natijalari asosida texnologik ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: innovatsion metod, kompetensiya, kompetensiyaviy yondashuv, texnologik ta'lim, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, kreativ fikrlash, kasbiy kompetensiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты применения инновационных методов обучения в системе технологического образования. Проанализированы современные механизмы подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности на основе компетентного подхода. В ходе исследования изучено влияние интерактивных методов, цифровых технологий, креативных подходов и педагогических инноваций на эффективность обучения. Также проведен сравнительный анализ инновационных и традиционных методов обучения. На основе результатов экспериментальной работы разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию процесса технологического образования.

Ключевые слова: инновационный метод, компетенция, компетентный подход, технологическое образование, интерактивные методы, педагогические технологии, цифровые технологии, креативное мышление, профессиональная компетенция.

Abstract: This article discusses the theoretical and practical aspects of applying innovative teaching methods in the system of technological education. Modern mechanisms for preparing future teachers for professional activity based on a competency-based approach are analyzed. During the research, the impact of interactive methods, digital technologies, creative approaches, and pedagogical innovations on educational effectiveness was studied. In addition, innovative and traditional teaching methods were comparatively analyzed. Based on the results of experimental work, scientific and practical recommendations for improving the process of technological education were developed.

Keywords: innovative method, competence, competency-based approach, technological education, interactive methods, pedagogical technologies, digital technologies, creative thinking, professional competence.

Kirish

Bugungi globallashuv va axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim tizimida tub islohotlarni amalga oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etish hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologik ta'lim tizimida innovatsion metodlardan foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini oshirish, ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va kasbiy tayyorgarligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'lim tizimi an'anaviy o'qitish usullaridan innovatsion va interfaol metodlarga o'tishni talab qilmoqda. Chunki bugungi kunda ta'limning asosiy maqsadi shunchaki bilim berish emas, balki o'quvchilarda amaliy ko'nikma, kreativ yondashuv va muammoli vaziyatlarni hal qilish kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir. Innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasida ham ta'lim tizimini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim tizimiga keng joriy etish vazifalari belgilangan.

Metodologiya

Texnologik ta'lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- talabalarni dars jarayoniga faol jalb qilish;
- mustaqil ta'lim ko'nikmalarini rivojlantirish;
- kreativ fikrlashni shakllantirish;
- amaliy kompetensiyalarni rivojlantirish;
- raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini hosil qilish.

Mazkur maqolaning maqsadi texnologik ta'limda innovatsion o'qitish metodlarini tahlil qilish, ularning samaradorligini aniqlash va an'anaviy metodlar bilan taqqoslashdan iborat. Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarning bilimni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatini shakllantirishdan iborat. Tadqiqotlarda kompetensiya tushunchasi turlicha talqin qilinadi. Jumladan, kompetensiya muayyan faoliyatni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar yig'indisi sifatida izohlanadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
2. Mustaqil ta'limni rivojlantirish;
3. Amaliy faoliyatga yo'naltirish;
4. Kreativ fikrlashni shakllantirish;
5. Hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish.

Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi kunda pedagogik ta'limning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy pedagog nafaqat bilim beruvchi, balki innovatsion texnologiyalarni amaliyotga tatbiq eta oluvchi mutaxassis bo'lishi

kerak. Kasbiy kompetensiyalar pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar — ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga qaratilgan zamonaviy pedagogik usullar majmuasidir. Ushbu metodlar ta'lim oluvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va dars jarayonini interfaol tashkil etishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- ◆ ta'lim oluvchini faol subyektga aylantirish;
- ◆ mustaqil izlanishga undash;
- ◆ muammoli vaziyatlarni yaratish;
- ◆ hamkorlikda ishlashni rivojlantirish;
- ◆ kreativ fikrlashni shakllantirish.

Bugungi kunda texnologik ta'limda quyidagi innovatsion metodlar keng qo'llanilmoqda: Aqliy hujum, Klaster, Case-study, Loyiha metodi, Debat texnologiyasi, Muammoli ta'lim, AKT asosidagi ta'lim. Innovatsion metodlarning asosiy afzalligi shundaki, ular ta'lim oluvchilarning darsdagi passivligini kamaytirib, faol ishtirokini ta'minlaydi. Interfaol metodlarning ta'lim samaradorligidagi o'rni. Interfaol metodlar innovatsion pedagogikaning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Mazkur metodlar o'qituvchi va talaba o'rtasidagi faol hamkorlikni ta'minlaydi.

1. Aqliy hujum metodi-Mazkur metod talabalarning kreativ fikrlashini rivojlantiradi. Talabalar muammo bo'yicha erkin fikr bildiradilar va turli yechimlar taklif qiladilar.

2. Klaster metodi-mavzu bo'yicha tushunchalarni tizimlashtirish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

3. Case-study texnologiyasi- mazkur texnologiya real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantiradi.

4. Loyiha metodi-talabalarda tadqiqotchilik, mustaqil ishlash va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Interfaol metodlarning samaradorligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- darsga qiziqish ortadi;
- mustaqil fikrlash rivojlanadi;
- muloqot madaniyati shakllanadi;
- amaliy kompetensiyalar rivojlanadi;
- kasbiy tayyorgarlik mustahkamlanadi.

Raqamli texnologiyalar bugungi ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Ayniqsa, texnologik ta'limda AKT vositalaridan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. Raqamli texnologiyalarni o'quv jarayoniga integratsiya qilish innovatsion didaktik model yaratishga xizmat qiladi. Texnologik ta'limda quyidagi raqamli vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi:

- multimedia taqdimotlari;
- virtual laboratoriyalar;

- elektron platformalar;
- onlayn test tizimlari;
- videodarslar;
- masofaviy ta'lim tizimlari.

Raqamli texnologiyalar quyidagi afzalliklarni beradi:

1. Axborotga tezkor kirish;
2. Mustaqil ta'lim imkoniyati;
3. Vizual tushuntirish;
4. Ta'limning interfaoligi;
5. Masofadan turib o'qitish imkoniyati.

Shuningdek, Google Classroom, Moodle, Zoom, Canva kabi platformalar ta'limni samarali tashkil etishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Texnologik ta'limda innovatsion va an'anaviy metodlarning o'ziga xos jihatlari mavjud.

MEZONI	O'QITUVCHI RO'LI	TALABA RO'LI	DARS SHAKLI	BILIM OLISH	NATIJA
ANANAVIY METOD	Asosiy subyekt	Passiv tinglovchi	Maruza	Tayyor bilim	Nazariy bilim
INNOVATSION METOD	Yo'naltiruvchi	Faol ishtirokchi	Interfaol	Mustaqil izlanish	Amaliy kompetensiya

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, innovatsion metodlar ta'lim samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki mazkur metodlar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy yondashuvini rivojlantiradi.

Xorijiy tajribalar tahlili. Rivojlangan davlatlarda innovatsion metodlarga asoslangan ta'lim tizimi keng rivojlangan. AQShda kompetensiyaviy yondashuv asosida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga katta e'tibor qaratiladi. Buyuk Britaniyada funksional yondashuv asosida ta'lim tashkil etiladi. Germaniya va Fransiya esa ko'p o'lchovli kompetensiyaviy modeldan foydalaniladi. Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida innovatsion texnologiyalar asosida kreativ fikrlashni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida qaraladi. Mazkur xorijiy tajribalar O'zbekiston ta'lim tizimida ham innovatsion metodlarni keng joriy etish zarurligini ko'rsatadi.

Innovatsion metodlarni joriy etishdagi muammolar. Texnologik ta'limda innovatsion metodlarni qo'llash jarayonida ayrim muammolar ham mavjud:

- moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi;
- pedagoglarning AKT kompetensiyasi pastligi;

internet bilan bog‘liq muammolar;
an‘anaviy yondashuvning saqlanib qolishi;
innovatsion metodlar bo‘yicha metodik ta‘minotning yetishmasligi.
Mazkur muammolarni hal etish uchun:
pedagoglar malakasini oshirish;
zamonaviy texnik vositalar bilan ta‘minlash;
elektron resurslarni ko‘paytirish;
innovatsion metodlar bo‘yicha seminar-treninglar tashkil etish zarur.

Xulosa

Texnologik ta‘limda innovatsion o‘qitish metodlarini qo‘llash ta‘lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan ta‘lim jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Innovatsion metodlar ta‘lim samaradorligini oshiradi, talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatadi, kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradi, ta‘lim jarayonining interfaoligini ta‘minlaydi, kreativ fikrlashni rivojlantiradi. Shuningdek, texnologik ta‘limda raqamli texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalanish zamonaviy pedagoglarni tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida innovatsion metodlarni yanada takomillashtirish, elektron ta‘lim resurslarini rivojlantirish hamda pedagoglarning AKT kompetensiyasini oshirish muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni.
3. Muslimov N. Kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent, 2020.
4. Xodjayev B. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2019.
5. Yo‘ldoshev J.G‘. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2021.
6. Mirsoliyeva M. Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish metodikasi. – Toshkent, 2022.
7. Begimqulov U. Ta‘limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2020.
8. Turg‘unov R. “Texnologik ta‘limda innovatsion o‘qitish metodlarini tahlil qilish va ularni taqqoslash” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. – Andijon, 2026.